



THE HISTORICAL SIGNIFICANCE OF THE TRADE AND DIPLOMATIC RELATIONS OF THE CENTRAL ASIAN KHANATES WITH THE RUSSIAN EMPIRE

Nargiza Karimova

*Doctor of Philosophy in Historical Sciences PhD
Jizzakh State Pedagogical University
Jizzakh, Uzbekistan*

Ziyodakhon Turgunbayeva

*Master's student
Jizzakh State Pedagogical University
Jizzakh, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Central Asia, Russia, Anthony Jenkinson, Bukhara, Khiva, Astrakhan, Abdullakhan II, Hafiz Tanish al-Bukhari, Abdullanoma (Sharfnomayi shohiy), Saraychik, Vazir, Urganch, Khorezm, Flipp Nazarov, Caspian-Volga trade route, Ernazar Maqsud son, Elizavetta II, Voronchev, Fyodor Ivanovich, Orenburg.

Received: 31.03.25

Accepted: 02.04.25

Published: 04.04.25

Abstract: In this article, the starting points of the historical roots of the trade – embassy relations of the Central Asian khanates with the Russian Empire, important trade centers and trade routes, as well as the ambassadors and trade caravans sent from the Russian Empire to the khanates and from the khanates to the territories of the empire, some opinions about the works done by the son of Ernazar Maqsud for the development of relations between the two eras are stated.

O 'RTA OSIYO XONLIKLARINING ROSSIYA IMPERIYASI BILAN SAVDO-ELCHILIK MUNOSABATLARINING TARIXIY AHAMIYATI

Nargiza Karimova

*Tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori PhD
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Jizzax, O'zbekiston*

Ziyodaxon Turg'unboyeva

*Magistaratura talabasi
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Jizzax, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: O'rta Osiyo, Rossiya, Antoniy Jenkinson, Buxoro, Xiva, Astraxan, Osiyo xonliklarining Rossiya imperiyasi bilan

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'rta

Abdullaxon II, Hofiz Tanish al-Buxoriy, Abdullanoma (“Sharafnomayi shohiy”), Saroychiq, Vazir, Urganch, Xorazm, Flipp Nazarov, Kaspiy-Volga savdo yo‘li, Ernazar Maqsud o‘g‘li, Yelizavetta II, Voronchev, Fyodor Ivanovich, Orenburg.

savdo-elchilik aloqalarining tarixiy ildizlarining boshlang‘ich nuqtalari, muhim ahamiyatga ega bo‘lgan savdo markazlari va savdo yo‘llari hamda Rossiya imperiyasidan xonliklarga va xonliklardan imperiya hududlariga yuborilgan elchilar va savdo karvonlari va Ernazar Maqsud o‘g‘lining ikki davlar munosabatlari rivojlanishi uchun qilgan ishlar to‘g‘risida ba`zi fikrlar bayon qilingan.

ИСТОРИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ТОРГОВЫХ И ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ СРЕДНЕАЗИАТСКИХ ХАНСТВ С РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИЕЙ

Наргиза Каримова

Доктор философии по истории PhD

Джиззакский государственный педагогический университет

Джиззак, Узбекистан

Зиёдахон Тургунбаева

студент магистратуры

Джиззакский государственный педагогический университет

Джиззак, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Средняя Азия, Россия, Етони Дженкинсон, Бухари Хива, Астрахань, Абдуллахон II, Хафиз Таниш аль-тБухары, Абдулланома (Шарафномаи Шахий), Сарайчик, Вазир, Ургенч, Хорезм, Филипп Назarov, Квспийско – Волжский торговый путь, сын Эрназара Максуда, Елизавета II, Ворончев, Федор Иванович, Оренбург.

Аннотация: В данной статье рассматриваются отправные точки исторических корней торгово-посольских связей среднеазиатских ханств с Российской империей: важные торговые центры и торговые пути, а также послы и торговые караваны, направлявшиеся из Российской империи в ханства и из ханств на территории империи, некоторые представления о работе, проделанной сыном Еразара Максуда для развития отношений между двумя эпохами.

O‘rta Osiyo xonliklari bilan Rossiya imperiyasi o‘rtasidagi savdo- iqtisodiy aloqalar uzoq tarixga borib taqaladi. O‘rta Osiyoning savdo-hunarmandchilik doiralari o‘z mahsulotlarini, ayniqsa, ipak, paxtadan to‘qilgan matolarni talab qilayotgan Rossiya bilan savdo-tijorat munosabatlarini rivojlantirishdan manfaatdor edi. Rossiyaning esa movut, temir, mis, mo‘yna, charm va boshqa mahsulotlari O‘rta Osiyoda xaridorgir bo‘lgan. Bundan tashqari, qozon tatarlari, orenburgliklar va boshqirdlar bilan din va til yaqinligi ham katta ahamiyatga ega edi. Shu sababli ham 1555-yilda tuzilgan «Moskva kompaniyasi» 1558-yilda Rossiya orqali Sharqqa yo‘l ochish uchun o‘z elchisi Antoniy Jenkinsonni Buxoraga jo‘natadi. Abdullaxon II tomonidan elchi yaxshi kutib olinadi. Bu elchilik natijasida, Rossiya va Buxoro xonligi o‘rtasida yaxshi savdo va diplomatik aloqalar yo‘lga qo‘yiladi. XVI asr mahalliy muallif, tarixchi Hofiz Tanish al-Buxoriyning Markaziy Osiyo va Xurosonning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotiga oid

ma'lumotlarga boy bo'lgan "Abdullanoma" ("Sharafnomayi shohiy") asari va S.V.Jukovskiy, St.Russov, N.Veselovskiy kabi bir qator rus mualliflarining asarlari orqali ham Buxoro xonligi bilan Rossiya o'rtasidagi elchilik aloqalari qanday bo'lganligini bilib olishimiz mumkin. A. Jenkinsonning elchiligi 21 oy (1558-yil apreldan 1559-yil 2-sentabrgacha) davom etgan. Unga Richard va Robert Jonsonlar va Aziz ismli tarjimon (tatar) hamrohlik qilgan. Jenkinson bu elchilik sayohati haqida "Rossiyadagi Moskov shahridan Baqtriyadagi Buxoro shahriga sayohat" nomli esdaliklarini yozib qoldirgan. U asarlari orqali Saroychiq, Xorazmdagi Vazir va Urganch shaharlari haqida qimmatli ma'lumotlarni keltirgan. Xususan, Rossiya imperiyasidan O'rta Osiyoga sayohat qilgan Filipp Nazarov ham o'z esdaliklarida mintaqa tarixi haqida qiziqarli ma'lumotlar yozib qoldirgan. Jumladan, Filipp Nazarov va uning hamrohlari Xo'jand shahrini ham borib ko'rgan. Xo'jand shahri haqida uning esdaliklarida quyidagi ma'lumotlar qayd etilgan: "Xo'jand hajm jihatdan Qo'qondan kichik emas. U Buxoro tomondan ba'zi yerlari nurab qolgan devor bilan, boshqa tomondan Sirdaryo bilan himoyalangan. Shahardan ariq va kanallar o'tkazilgan. Qo'qondagiga o'xshash korxonalari va hordiq chiqaradigan yerlari ko'p".

XVI-XIX asrlarda albatta, savdoning yaxshi taraqqiy etishi karvon yo'llarining havfsizligi va yo'llar bo'ylab yaratilgan shart-sharoitlarga bog'liq edi. Bu davrning eng serqatnov yo'llaridan biri bu Kaspiy- Volga yo'li bo'lib,(XVI asr o'rtalarida Rossiya tomonidan Astraxan bosib olingandan so'ng o'zbek xonliklari shu yo'l bilan bevosita savdo qilishgan) Moskvadan Buxoroga borish uchun 5 ming 400 kilometrdan oshiq yo'l bosilgan va bu uchun 3 oydan oshiq vaqt ketgan. Astraxandan Urganchga esa 35-50 kun yo'l bosilgan. XVII asr boshlaridagi ma'lumotlarga ko'ra Samara orqali ko'p savdo karvonlari qatnab turgan. Masalan, 1614 -yilda yirik savdogar Nazirxo'ja va karvonboshi Darvish Buxoro hamda Urganchdan 900 ga yaqin savdogarlarning mollari bilan Samaraga borib savdo qilishgan. Samara yo'li dasht orqali Yoyiqqa, Embaga so'ngra Urganchga tutashib ketar edi. Astraxan orqali ham savdo aloqalari yaxshi rivoj topayotganligi to'g'risida, Abdullaxon elchisi Muhammadali ham o'zining ijobiy fikrlarini bildirib, 1585-yilda rus podshosi Fyodor Ivanovichga maktub yozadi. Maktub mazmuniga ko'ra, tatarlar dengizdan xonliklar savdogarlarining mollarini olib o'tishga ordam berayotgani ma'lum qilingan. XVII asrga kelib savdo yana jonlanadi. 1615-yil buxorolik S. Tursunov va Turdi Shukurovlari 5 to'p turli gazlamalarni Astraxanga keltirganliklari va 1620-21-yillarda ham savdogarlar guruhi turli gazlamalar bilan bu yerga savdo uchun kelishganliklarini so'zimiz isboti sifatida keltirishimiz mumkin. 1619-yilda Imomqulixonning elchisi Odambiy Moskvaga boradi va podsho Mixail Romanov qabulida bo'ladi. Podsho Odambiy bilan birgalikda Buxoroga Ivan Xoxlov boshchiligidagi elchilarni yuboradi. I. Xoxlovni Imomqulixon qabul qiladi, rus podshosi iltimosiga binoan o'z saroyidagi 23 nafar rus asirlarini ozod qiladi. I. Xoxlov 1620-1622-yillarda Buxoro xonligining ichki va tashqi siyosati haqida qimmatli ma'lumotlari to'playdi. Xususan, Rossiya va

Xiva o‘rtasidagi savdo yo‘llarini tekshirgan va xonlikdagi siyosiy vaziyat haqida hisobot tayyorlagan. U qimmatli sovg‘alar bilan Moskvaga kuzatiladi. Yozma manbalarga ko‘ra, XVI-XVII asrlarda Buxoro va Xiva xonliklariga Rossiyadan 12 marta elchilar kelishgan. 1583-1600-yillarda Moskvada 5 marta Buxoro elchilar, 2 marta Xiva elchilar bo‘lishgan. Bu misollar Markaziy Osiyo va Rossiya o‘rtasida savdo-diplomatik aloqalarning ancha faollashganligidan guvohlik beradi. 1620-yili buxorolik bir guruh savdogarlar Qozon orqali 1300 rangdor ip-gazlama, 300 ta uch qavatlari zandoni, 23 ipak gazlama, 20 ta parda, 150 ta belbog‘, 50 ta ikki qavatlari zandoni kabi tovarlar bilan Nijniy Novgorodga savdo uchun kelishgan. 1622-yilda esa Qozon orqali Nijniy Novgorod va Yaroslavldan bir guruh o‘zbeklar Moskvaga borib tijorat ishlarini olib borishgan. Qozonda savdo ishlari juda ham tarqqiy etadiku, u yerda xattoki savdogarlar yashashgan va o‘zlarining turar joylariga ega bo‘lishgan. Ko‘chilik savdogarlar Qozonda hech qanday soliq to‘lamay, savdo qilishgan. 1636-yilda ham Imomqulixon tomonidan Muhammad Davlatov elchi sifatida Rossiyaga jo‘natiladi. Elchining asosiy maqsadi Buxoro va Rossiya o‘rtasidagi savdo aloqalarini mustahkamlash, Buxoro savdogarlarining Orenburg va Astraxan orqali erkin savdo qilishga ruxsat olish edi. 1654-yilda esa Rossiya imperiyasi tomonidan Fyodor Baikov elchi sifatida Buxoroga yuboriladi va Buxoro xonni bilan ikki davlat o‘rtasidagi savdo aloqalarini muhokama qiladi. XVII asr 90- yillarida Astraxandan rus savdogarları 92 ta Xiva gazlamasi, 30 ta qorako‘l, 10 to‘p Buxoro gazlamasi, 10 to‘p Xiva xom surpi, 804 to‘p ip gazlama, 5 ta parda 110 ta belbog‘, 9 ta zandoni 15 ta qo‘y terisi kabi boshqa mollarni Moskvaga keltirishgan. Cho‘l orqali ham savdo olib borilgan bo‘lib, 1617-yil Samaraga Do‘sul rahbarligi 300 aravali, Mamatxonbek hoji boshchiligidagi 200 aravali savdo karvoni kelgan edi. Lekin Xiva elchisi Yusuf hojining bu savdo karvoni talanib, savdogarlar 30000 so‘mlik mollarini yo‘qotishgan. Biroq keyinchalik savdo aloqalari to‘xtab qolmaydi. Jumladan, Xiva elchisi Amin Bahodirning rus podshosi Mixail Fyodorovichka ma`lum qilishicha, 1640-yillar mobaynida har yili 40-50 rus savdogarlar Urganchga savdo maqsadida kelishgan. Xonliklar savdogarlar Kaspัย- Volga yo‘lib bo‘ylab Kavkaz, Eron va boshqa joylarga nafaqat o‘z mollari bilan balki, rus mollari bilan ham savdo qilganlar.

Rossiya imperiyasi hududidan XVI asrning 80-yillari oxirigacha mum va asal bilan erkin savdo qilingan bo‘lsa, keinchalik bu mahsulotlarni sotish davlat ixtiyoriga o‘tkaziladi. Faqatgina podshohning maxsus farmoni bilan mum va asal chetga sotilgan. Shunday podshohning ruxsatnomasi, 1589-yilda Buxoro elchisiga 400 pud mum sotib olish uchun berilgan edi. XVI asrning 2-yarmida olib keligan rus mollari orasida movut kam uchraydi. Buxoroda bozorlarida esa Hindiston va Erondan keltirilgan movutlar sotilar edi. Bu yerga esa Portugaliya va Turkiyadan olib keligan. XVII asrdan boshlab movutlar Rossiyadan olingan. 1717-yili Buxoro xoni Peterburgga o‘z elchisini yuboradi. Elchi Qulibek Abulfayzxonning Pyotr I ga shvedlar

ustidan qozongan g‘alabasi munosabati bilan tabriklab maktub topshiradi. Maktubda Abulfayzxon Rossiya elchisi yuborilishini ham so‘raydi. Natijada, Rosssiya hukumati 1721-yil Florio Benevenini elchi qilib yuboradi. Italiyalik Rossiya josusi elchilik niqobida iqtisodiy va geoegrafik ahamiyatga molik yerlarni buxoroliklarga bildirmay eslab qolish, Kaspiyga quyiladigan daryolar, kemalar shaharlar va istehkomlar haqida ma`lumotlar to‘plash topshirilgan edi. Elchiga Sharq mamlakatlariga olib bordigan suv va quruqlik yo‘llarini o‘rganish; rus savdosini kengaytirish imkoniyatlarini aniqlash; Buxoro xonini Rossiya bilan ittifoq tuzishga ko‘ndirish; xonga rus gvardiyasini taklif etish; qayerda qancha oltin borligini aniqlab xaritaga tushirish; xonlikdagi qal‘a va qo‘sishinlar ahvolini o‘rganish hamda xonlikning Eron va Xiva bilan munosabatlarini o‘rganish vazifalari yuklatilgan edi. Beneveni Buxoroda 3,5 yil turdi va qimmatli ma`lumotlar to‘plab, ularni maktublar orqali Sankt- Peterburgga jo‘natib turdi. 1725-yilda elchini o‘zi ham Peterburgga qaytib ketdi. Benevenining so‘zlariga qaraganda, XVIII asrda ham savdo markazlaridan biri Astraxan bo‘lib qolavergan. U yerda ayniqsa, Buxoro va Xiva qorako‘llari juda yuqori baholangan. Xususan, bitta Buxoro qorako‘li 25-30 so‘mgacha baholangan. Qalmoq qorako‘l terisi 50 tiyinga yaqin turgan.

Xiva xoni Muhammad Rahim I (1702-1717) Pyotr I bilan diplomatik va savdo aloqalarini yo‘l ga qo‘yish uchun elchi jo‘natadi. Xivadan Rossiyaga jun, gilam va ipak mahsulotlari jo‘natilgan, evaziga esa metal buyumlar va qurol-yarog‘ olish rejalashtirilgan edi. 1715-yilda esa Buxgols ekspeditsiyasi yo‘lga chiqadi. Ular Topoldan Irtish bo‘ylab Yorkentga yo‘l oladi. Bu guruh Yamishchev ko‘lida bo‘lib, u yerda istehkom quradi. Biroq, ular qalmoqlar hujumiga uchrab, orqaga chekinishadi. 1716-yilda Bekovich- Cherkasskiy boshchiligidagi harbiy yurish Xivada mag‘lubiyatga uchragandan so‘ng, ikki davlat o‘rtasidagi tijorat ma`lum muddat to‘xtab qoladi. 1726-yilga kelibgina Xiva xoni Rossiyaga o‘z elchisi orqali munosabatlarni taklif qiladi va bu rus hukumati tomonidan ijobjiy qabul qilinadi. 1727-yilda Xiva va Buxoro bilan savdo aloqalarini tiklash yuzasidan Astraxan harbiy gubernatoriga ko‘rsatma beriladi. Shu yilning 26-sentabrda savdo aloqalari tartibga solish uchun qaror qabul qilinadi. Xiva xonligining Rossiya bilan bo‘lgan savdo-sotiq xonlikning iqtisodiy hayotida katta ahamiyatga ega bo‘lgan. XVIII asr o‘rtalarida Orenburgga asos solingach, Xiva savdogar-lari Uralbo‘yi orqali savdoni jonlantirganlar. Xivadan Rossiyaga asosan paxta matolari, mevalar, qimmatbaho toshlar, qog‘oz mahsulotlari, ipak gilam sariyog‘, guruch, qorako‘l, Kashmir matosini chiqarardi. Rossiyadan esa oltin kumush tangalar, temir, mis, cho‘yan, paxta, ipak va yung matolar, bo‘yoq, shaker, choy, billur idishalr oshlangan teri keltirilgan. Savdo-sotiq tekis bormasada, lekin o‘sib borgan.

Rus, hind, arman savdogarlari ham rus mollarini Xiva va Buxoroga yuborib turishgan. Xususan, 1713-yil T.Demidov movut, charm, nina, qulf, oyna kabi mahsulotlarni, 1728-yilda Lev Nikiforov, 1727-yilda grek savdogari, 1731-yilda arman va hind savdogarlari rus mollarini

xonliklar bozoriga olib kelishgan. 1735-yilda esa Astraxanlik Lochinboev Xivadan 18 so‘mlik 42 parda, 5 parcha mato, 54 so‘mlik 37 tulki mo‘ynasi, jami 75 so‘m 20 tiyin hajmidagi mollarni olib kelgan. Navro‘z Bilolov esa 560 so‘m Buxoro qorako‘li, 47 sm 95 ta oq parcha gazlamasini olib kelgan edi. 1736-yilda Orenburg qurilishi natijasida, xonliklar bilan savdo aloqalari yanada rivojlandi. Astraxan orqali olib boriladigan savdo rivojiga esa bu salbiy ta`sir ko‘rsatdi. 1759-yili rus hukumati Xiva va Buxoro bilan savdoni rivojlantirish maqsadida kompaniya tuzishga qaror qilishdi va bu kompaniyaga senator general Voronchev 30 yilga rahbar etib tayinlandi. Kompaniyaga temir va cho‘yan kabi chetga olib chiqishi man etilgan mahsulotlarni olib chiqishga imtiyozlar berildi. Kompaniya tuzilishidan maqsadlardan yana biri davlatning oltin va kumushga bo‘lgan ehtiyojini qondirish edi.

1754-yilda Rossiya imperitsiyasi Yelizaveta o‘z saroyida Sharq ellaridan kelgan bir guruh savdogarlarni qabul qiladi. Yelizavetta xuddi otasi Pyotr I kabi Sharq bilan qiziqar va nodir toshlar, qimmatbaho gavhar va duru javohirlar yig‘ishga havasi baland edi. Savdogarlar ichida Ernazar Maqsud o‘g‘li o‘zining muomalasi, dadil harakatlari va rus tilida erkin so‘zlashishi bilan ajralib turar edi. Buxorolik savdogar Yelizavetadan po‘lat va qo‘rg‘oshin soyib olishga ruxsat so‘raydi. 1762-yili u Rossiya hukumatidan buxoroliklarning Makkaga haj qilishi uchun Eron orqali emas, balki Ashtarkon orqali o‘tishiga ruxsat so‘raydi. Imperator Pyotr III bu iltimosnomaga imzo chekadi. 1774-yilda Ernazar maqsud o‘g‘li Buxoroning rasmiy elchisi sifatida Ashtarkonga katta karvon bilan keladi. Uning mollari 40 tonnadan ortiq edi. U yuklarini kemada keltirgan Pyotr Volnovoinovga yo‘l haqqi uchun 1300 so‘m to‘laydi. Rossiya hukumati Ernazar Maqsud o‘g‘liga katta vakolatlar sovg‘a- salomlar berishdan tashqari, Kaspiy dengizidagi bir kemani shaxsan tuhfa qilib, unga savdogar sifatida imperiya hududida 5 yil davomida erkin savdo qilish va qiymati 10 ming so‘mgacha bo‘lgan mollaridan boj olmaslik huquqini beradi. Unga 15 ming pud temir, 5 ming pud po‘lat, 3 ming pud mis sotib olish va Buxoroga yuborishiga ruxsat beriladi. Ikki tonnadan ortiq atir-upa, dorivor giyohlar va attorlik mollari keltirgan Ernazarga minnatdorchilik tariqasida imperitsiya Buxoroda o‘z nomi bilan ataluvchi madrasa qurish uchun katta pul beradi. 1779-yilda Buxoro hukumati Ernazar Maqsud o‘g‘lini Rossiya va Turkiyadagi buyuk elchisi qilib tayinlaydi. 1780-yilda Sankt-Peterburgga yetib elchi hurmat ehtirom bilan kutib olinadi. Yekaterina II unga Buxoro qovunlari uchun minnatdorchilik bildirib, Buxoro savdogarlaridan olinadigan bojning kamaytirilganligi hamda Makkaga haj qiluvchi musulmonlar uchun barcha qulayliklar va yo‘l havfsizligi ta`minlanishini ham ma`lum qildi. Manbalarda Ernazar Maqsud o‘g‘li « Buxoro savdogari, karvonboshi, mulla va elchi», « millariga sharaf keltirgan», uning obro‘sini chet ellarda ko‘targan ajoyib inson sifatida ta`riflanadi. O‘rta Osiyo savdogarlar Rossiya shaharlariiga boruvchi uzoq karvon yo‘llarida qozoq tuyalari va qisman otlaridan foydalangan. Qozoqlar tuyu va otlarini savdogarlarga ijara qozog‘ilish uchun qurish uchun katta pul beradi. 1781-yilda Ernazar Maqsud o‘g‘lini Rossiya va Turkiyadagi buyuk elchisi qilib tayinlaydi. 1782-yilda Sankt-Peterburgga yetib elchi hurmat ehtirom bilan kutib olinadi. Yekaterina II unga Buxoro qovunlari uchun minnatdorchilik bildirib, Buxoro savdogarlaridan olinadigan bojning kamaytirilganligi hamda Makkaga haj qiluvchi musulmonlar uchun barcha qulayliklar va yo‘l havfsizligi ta`minlanishini ham ma`lum qildi. Manbalarda Ernazar Maqsud o‘g‘li « Buxoro savdogari, karvonboshi, mulla va elchi», « millariga sharaf keltirgan», uning obro‘sini chet ellarda ko‘targan ajoyib inson sifatida ta`riflanadi. O‘rta Osiyo savdogarlar Rossiya shaharlariiga boruvchi uzoq karvon yo‘llarida qozoq tuyalari va qisman otlaridan foydalangan. Qozoqlar tuyu va otlarini savdogarlarga ijara qozog‘ilish uchun qurish uchun katta pul beradi.

boshlovchi vazifasini bajarganlar. O'rta Osiyo xonliklari savdogarlarining Toshkent orqali Rossiya shaharları, G'ulja va Chuguchakka boradigan savdo karvonlarining yo'lboshchiları Turkiston, Avliyota va asosan Chimkent atroflarida yashovchi qozoqlarning beshtamg'ali urug'i vakillari bo'lgan. Ularning tuyalari ko'p bo'lib, apreldan iyulgacha 10 ming tuya yig'ish imkoniyatiga ega bo'lishgan. Toshkent va qozoq dashtlari orqali Rossiya shaharlariga boriladigan karvon yo'llari uzoq va ancha havfli bo'lib, karvonni manziliga talofatsiz yetkazib borish yo'lboshchidan katta ma'suliyat talab etgan. Bu qozoq urug'i vakikllari xalol, to'g'ri so'z bo'lib, karvonlarga yo'lboshchilik va o'z tuyalarida yuklarni manziliga yetkazib berish kasbi ularning tirikchilik manbai bo'lgan.

XVIII asrda Toshkent hududi ancha kengayadi. Bu paytda hokimlik qilayotgan Yunusxo'ja nafaqat davlat hududini kengaytirdi balki, chet davlatlar bilan ham savdo elchilik aloqalarini rivojlantirdi. Jumladan, u 1794-yilda savdo karvoni orqali Sibirdagi mahalliy hokimlarga tog' kon ishlari bo'yicha mutaxassislarni Toshkentga yuborishini so'raydi. Chunki Rossiyada tog' sanoati ancha taraqqiy etgan edi. Tog' kon sanoatini rivojlantirishdan maqsad esa qo'shinni zamonaviy qurollar bilan qurollantirish va davlat xazinasini mustahkamlash edi. General-mayor Shtardmand A. S. Beznosikov va tog' ishlari bo'yicha muhandis T. S. Burnashevlarini Toshkentga yuboradi. Elchilar Omskdan Troitsk qal`asiga keladi va bu yerda 80 tuyalik savdo karvoniga qo'shiladi. Rus elchilar general-gubernator Shtardmand tomonidan Buxoro amiri Shohmurodxonga, Toshkent hokimi Yunusxo'jaga, Xo'jand begi Xudoyorbekka va Turkiston shahri atrofidagi qozoq sultonni Bo'kayga xat bilan murajaat qilganini aytadi va bu holat amir tomonidan ijobiy kutib olinmaydi. Chunki elchilar har doim elchilar imperator nomidan yorliq olib kelishardi. Elchilarga Toshkentga o'tib ketishlariga amir ruxsat bermaydi va ular Orenburgga qaytib ketishadi. 1796-yilda ikkinchi marta D.Telyatnikov va A.S. Beznosikovlar Toshkentga jo'natiladi. Lekin ular ham texnika yo'qligi sababli Mullajon Oxun va mingboshi Ashirmat Botir singari Yunusxo'janing elchilarini bilan ortga qaytadi.

Foydalaniqan adabiyotlar ro'yxati

1. Eshov B.J., Odilov A.A. O'zbekiston tarixi (II kitob). Toshkent: Donishmand ziyosi, 2020. - B.301.
2. Sodiqov X., Shamsutdinov R., Ravshanov P., Usmonov Q., Rajabov Q. Turkiston chor Rossiysi mustamlakachiligi davrida. T.: Sharq, - B.39
3. Shamsutdinov R., Karimov Sh., Xoshimov S., Ubaydullayev O'. Vatan tarixi (II kitob) T.: Sharq, 2016. B-95
4. Губайдуллин Г. Из истории торового класса Приволжских татар. Баку, 1926.-C.54.

5. X. Г. Гуломов. Из истории дипломатических отношений России с Бухарским ханством XVIII в. -С.95
6. Гейнс А. К. Управление Ташкентом при Кокандском владычестве.... - С.516.
7. Курц Б. Г. Сщинение Кильбургера о русской торговле при царствовании Алексея Михайловского. Киев, 1915. - С.395.
8. Зохид Мадрахимов Кокон хонлигига савдо муносабатлари тарихи монография – Т.: Йанги нашр, 2014 -С.95
9. Ўрта Осиё хонликларида элчиларни тайёрлаш тарихидан /Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммолари. Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Тошкент, 2010. – Б. 149–156.
10. A. Rajabov, N. Habibova. XV-XVII asrlarda O’rta Osiyo xonliklarining Rossiya bilan savdo-elchilik munosabatlari/ <https://doi.org/10.5281/zenodo.8062412>
11. <https://tarix.sinaps.uz/hodisa/ozbek-xonliklari-va-rossiya-imperiyasi-munosabatlari/>
12. Karimova, N. (2024). О ‘ZBEKISTONDA О ‘TKAZILAYOTGAN XALQARO FESTIVALLARNING MADANIY ALOQALAR DAGI ROLI (Xalqaro asal festivali misolida). *Вестник музыки и искусства*, 1(4), 95-104.
13. Karimova, N. (2024). THE PROCEDURE FOR WARNING RESIDENTS OF THE NEIGHBORHOOD ABOUT EMERGENCY SITUATIONS. *Modern Science and Research*, 3(1).